



QO‘QON XONLIGI DAVRIDA XORIJIY DAVLATLAR BILAN MADANIY ALOQALAR

Madraximova Gulshanoy Sotiboldiyevna
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Akademiyasi Milliy iftixor va harbiy
vatanparvarlik kafedrasi professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi davrida hukmdorlarning horij mamlakatlari bilan olib borgan madaniy aloqalari haqida so‘z yuritilgan. O‘z davrida bu do‘stona munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilgan

Kalit so‘zlar: Amiriy devoni, adabiy muhit, Usmonli davlati, qo‘lyozma, mumtoz, turkiy, noyob, iste‘dod, kutubxona, muzey

КУЛЬТУРНЫЕ СВЯЗИ С ЗАРУБЕЖНЫМИ СТРАНАМИ В ПЕРИОД КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

Аннотация: В этой статье рассказывается о культурных связях правителей с зарубежными странами в период существования Кокандского ханства. В свое время это послужило укреплению дружеских отношений

Ключевые слова: кабинет эмира, литературная среда, Османское государство, рукопись, классика, тюркский, редкий, талант, библиотека, музей

CULTURAL RELATIONS WITH FOREIGN POWERS DURING THE KOKAND KHANATE

Annotation: this article deals with the cultural ties the rulers had with the countries of horij during the Kokand Khanate. In its day, it served to strengthen friendly relations

Key words: Amiriy Devani, literary environment, Ottoman state, manuscript, classical, Turkic, unique, talent, Library, Museum

Kirish. Qo‘qon xonligini boshqargan Amir Umarxon o‘zining hukmdorligi yillarida tashqi munosbatlarda boshqa davlatlar bilan yaxshi madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Umarxon ijodkor bo‘lganligi uchun o‘zi yozgan asarlaridan boshqa mamlakat hukmdorlariga sovg‘a sifatida yuborgan. Bu esa o‘z navbatida xonlikni tashqi aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan.

O‘zbek mumtoz so‘z san‘ati tarixida alohida hodisa bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhitining vujudga kelishi, ravnaq topishi va adabiyotimizning muhim bir bosqichini tashkil etishida katta o‘rin tutgan Amiriy (Umarxon) o‘zi asos solgan adabiy muhit namoyandalaridan qolishmaydigan darajada iste’dod sohibi bo‘lgan. Umarxon davrida Qo‘qon adabiy muhiti shakllandi, ko‘plab madrasa, masjid va maktablar barpo etildi [1].

Amir Umarxonning ko‘pgina shoirlarni o‘z atrofiga birlashtirib, o‘zbek adabiyoti tarixiga “Qo‘qon adabiy muhiti” nomi bilan kirgan ulkan bir adabiy maktabni tashkil etgani va unga homiylik qilganligining o‘zi uning madaniyatimiz oldidagi beqiyos xizmatidir. Darhaqiqat, uning boy adabiy merosi va serqirra madaniy-adabiy faoliyatini chetlab o‘tib, XIX asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti haqida to‘liq tasavvur hosil qilish mumkin emas.

Bu haqida, –“Umarxongacha Farg‘ona xonlari adabiyot yaratgan emas”[2], -deb yozgan edi taniqli adabiyotshunos T.Jalolov. Amir Umarxon qalam ahlini atrofiga to‘plab, butun bir adabiy muhitga asos soldi, uni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlab turdi, unga rahnamolik qildi. Ko‘plab iste’dodlarning ro‘yobga chiqishi va xalqqa tanilishida ham Amiriyning hissasi katta. Qo‘qonda yashab ijod etgan 70 dan ortiq shoir she‘rlaridan namunalar keltirilib, ular haqida muxtasar ma’lumot beruvchi Fazliyning “Majmuai shoiron” tazkirasi, Gulxaniynining “Zarbulmasal”, Mushrif Isfaragiyning “Shohnomai Nusratpayom” asarlari va boshqalar shaxsan Amiriy tashabbusi va homiyligida yaratilgan [3].

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarning kutubxonalarida, muzeylarida Qo‘qon adabiy muhitida yaratilgan nodir qo‘lyozmalar saqlanadi. Jumladan, Turkiya davlati kutubxona va muzeylaridan O‘rta Osiyo mintaqasidan olib borilgan aynan mumtoz turkiy tilda yoki boshqa tillarda yaratilgan asarlarning ko‘p sonli nusxalari joy olgan. Muhimi shundaki, bularning orasida ba’zi qo‘lyozma asarlar davlat hukmdorlari tomonidan Usmonli davlatiga sovg‘a sifatida yuborilgan. Albatta, bunda Qo‘qon xoni Amir Umarxonning xizmatlari katta. Qo‘qon adabiy muhitiga tegishli Turkiyadagi asarlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1) Amir Umarxon tomonidan Usmonli sultoni Mahmud II uchun yuborilgan “Muhabbatnoma” to‘plami.

2) Istanbul universitetida saqlanuvchi Fuzuliy va Amiriy devoni nusxasi.

3) Otaturk kutubxonasida saqlanuvchi “Majmuai shuaro” nusxasi.

Aytish mumkinki, uch asar Usmonli davlatining poytaxti bo‘lgan Istanbulda saqlanadi. “Muhabbatnoma” va “Amiriy devoni” nusxalari dastavval Usmonli davlatining Yulduz saroyida saqlangan. Bundan ko‘rish mumkinki saroyga Qo‘qon xonligi tomonidan ikki davlat o‘rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun yuborilgan. Keyinchalik Otaturkning buyrug‘i bilan Yulduz saroyida saqlanuvchi qo‘lyozma asarlar Istanbul universitetining nodir asarlar kutubxonasiga ko‘chirilgan [4]. Shu sababli hozirda shu kutubxonada saqlanmoqda. Turkiyaga yuborilgan har bir asar haqida ma’lumotlar bor. 1819-yilda Qo‘qon xoni Amir Umarxon o‘z davrining obro‘-e’tiborli ulamosidan biri bo‘lgan Sayyid Mir Qurbon Oxund boshchiligidagi guruhni Usmonli davlatiga elchi sifatida yuborgani ma’lum. Ushbu elchilik hay’ati o‘zi bilan usmonli sultoniga bir qator sovg‘a-salomlar yuborilgan.

Ularning orasida O‘rta Osiyo va Kichik Osiyo aloqalarining eng yorqin san‘at va madaniyat meroslaridan biri bo‘lgan “Muhabbatnoma” to‘plami bor edi. Ushbu to‘plam hozirda Istanbul universitetining nodir asarlar kutubxonasida (TY5452 raqami ostida) saqlanadi. To‘plam haqida ilk ilmiy ma’lumot Miyon Buzruk Solihov tomonidan 1930- yilda A. Erkinov, O. Jo‘raboev kabi olimlar alohida tadqiqotlar olib borgan [5].

Qo‘qon xoni Umarxonning Usmonlilar sultoni Mahmud II ga yuborgan hadyolari ichida nafis naqshlar va xattotlik namunalari bilan bezalgan Alisher Navoiy, Lutfiy, Amiriy hamda Fuzuliy devonlaridan tuzilgan “Muhabbatnoma” majmuasi diqqatga sazovor [6] ekanligini ko‘pchilik e’tirof etgan.

Amir Umarxon keyin taxtga o‘tirgan o‘g‘li Muhammad Alixon ham horij mamalakatlari bilan madaniy aloqalarni mustahkamlashga harakat qilgan.

Islom olamida Qur’oni karim hadyalar ichida eng bebahosi hisoblangan. Bu borada Qo‘qon xoni Muhammad Alixon tomonidan Usmonlilar hukmdori Sulton Mahmud II (1808–1839) ga yuborilgan sovg‘alar ro‘yxatida bir dona Mus’haf sharif (muqaddas Qur’on) ning qayd etilishi e’tiborga loyiqdir. Istanbul universiteti kutubxonasida Qo‘qon xoni Umarxon (1810–1822) hamda Buxoro hukmdori amir Haydar (1800–1826)ga tegishli Qur’oni karimning nodir qo‘lyozma nusxalari saqlanib qolgan bo‘lib, ular aynan diplomatik, va madaniy aloqalar uchun qimmatli tuhfa sifatida tayyorlangan deyish mumkin. Mus’hafning ikkinchi va so‘nggi sahifalarida Qo‘qon xoni Umarxonning bodomsimon muhri qo‘yilgan bo‘lib, unda “Amir al-muslimin Sayyid Muhammad Umar bin Norbo‘taxon 1229” so‘zlari yozilgan. Qur’oni karimning ushbu nusxasi Qo‘qon xonligida tayyorlangan boshqa nusxalardan farqli ravishda, chiroyli bezaklar va oltin suvi bilan naqshlanganligi uning maxsus sovg‘a uchun tayyorlanganligidan dalolat beradi [7]. Bundan tashqari, madaniy aloqalarda hukmdorlar buyuk shoirlarning devonidan nusxalar ko‘chirtirib, o‘zaro bir-birlariga hadya etishgan.

1837- yilda Usmoniy turk sultoni Mahmud II (1808–1839) huzuriga yuborilgan Qo‘qon elchisi Muhammad Zohid xojaning axboroti orqali [8] Qo‘qon xonligini nafaqat Turkiya balki Hindiston davlati bilan ham munosabatlariga munosabatlari yaxshi bo‘lganligini bilish mumkin. Jumladan, Muhammad Zohid xoja bir yil avval Qo‘qonga Hindistondan harbiy mutaxassislar kelib, yevropacha uslubda Qo‘qon askarlari bilan harbiy mashg‘ulotlar olib borayotganligini ma’lum qiladi. Arxiv hujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha, Usmonli sultoni Muhammad Zohid xojaga Qo‘qon hukumatini Hindiston va u orqali Britaniya hukumati bilan munosabatlarni mustahkamlashni taklif etgan. Garchi Muhammad Zohid xoja boshchiligidagi diplomatik missiya Qo‘qon xonligi bilan Usmonli imperiyasi o‘rtasida bo‘lsa-da, bu, o‘z navbatida, Qo‘qon-Hindiston munosabatlarining yangi bosqichga chiqishiga sababchi bo‘lgan deyish mumkin va, albatta, bunda juybar shayxlari sulolasidan bo‘lgan Sayyid Muhammad Zohid xojaning o‘ziga yarasha o‘rni bo‘lgan. Shuningdek, Qo‘qon xonligi uchun Hindistonning hududiy jihatdan ham ahamiyati bor edi. Ma’lumki, haj ziyoratiga eltuvchi yo‘lning uchta tarmog‘i bo‘lib, birinchisi Hindiston, ikkinchisi Eron va uchinchisi Usmoniylar imperiyasi hududlari orqali o‘tgan. XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligi aholisining ko‘pchiligi Makka

ziyosatiga borishda Usmoniylar hududi orqali o‘tgan yo‘ldan foydalangan bo‘lsalar, ularning bir qismi aynan Hindiston hududi orqali o‘tgan yo‘nalishdan yurganlar. Haj yo‘li o‘z o‘rnida o‘zaro ma’naviy-madaniy integratsiya jarayonlariga ham xizmat qilgan. Qo‘qon xonligi va Hindiston xalqlari o‘rtasidagi dastlabki madaniy aloqalar Farg‘ona vodiysida tarqalgan so‘fiylik tariqati vakillari orqali yo‘lga qo‘yilgan. Marg‘ilonlik Sayyid Abdullaxon to‘ra Hindistonga Kashmirdagi mashhur so‘fiylar yetakchisi Ahmad Serxindiyning avlodi Miyyon Obiddan ta’lim olish uchun borganligi va u yerdan Qur‘onning noyob nusxasini keltirganligi yuqoridagi fikrga misol bo‘ladi. Naqshbandiya tariqatining vakili Miyyon Xalil Sohobzoda eshonning Qo‘qon-Hindiston aloqalarini mustahkamlashda o‘z o‘rni bo‘lgan. Qo‘qon xoni Muhammad Alixon 1825-yilda Hindistonga elchi yuborib, Miyyon Xalil Sohobzodani xonlikda istiqomat qilishga taklif etgan va u 1826- yilda bu yerga tashrif buyurgan [9].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Hindiston bilan O‘rta Osiyo xonliklari jumladan, Qo‘qon xonligining elchilik munosabatlari ikki hudud xalqlari o‘rtasidagi ma’naviy-madaniy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishida ham muhim o‘rin tutgan.

O‘rta Osiyo xonliklarining Sharqiy Turkiston va Xitoy bilan bevosita chegaralari Qo‘qon xonligi hududiga to‘g‘ri kelgan. Shu jihatdan O‘rta Osiyoning bu davlatlar bilan diplomatik aloqalarini, asosan, Qo‘qon xonligi misolida ko‘rish mumkin.

Ikki hudud aholisi o‘rtasidagi o‘zaro madaniy-ma’naviy almashinuv ham bir-birlarining madaniyatini boyitishga xizmat qilgan. Xususan, Qo‘qon xonligi me’morchiligida, “qashqarcha mo‘ri-o‘choq”, “qashqarcha ra- von yoki ayvon”, zargarlik san’atida, “qashqarcha baldoq”, “qashqarcha zirak” Rishton kulolchiligida “chinni”, kandakorligida “qashqarcha qumg‘on” kabi yangi mahsulotlarni yaratishning uslublari o‘zlashtirilgan. O‘zbek shashmaqomlari tarkibiga “Mushvirak”, “qashqarcha rox” kabi uyg‘ur maqom kuylarining kiritilishi ikki xalqning musiqa sohasida yaqindan aloqada bo‘lganligini ko‘rsatadi. O‘zaro madaniy ta’sir o‘zbek va uyg‘ur xalqlarining an’analari umumlashtirib rivojlantirgan, boyitgan.

Sharqiy turkistonlik faylasuf Muhammad Siddiq Rushdiy, adiblardan Xislat Qashqariy, Xushhol G‘aribiylar Qo‘qon xonligiga kelib ijod qilgan bo‘lsa, qo‘qonlik Imom Ali Qunduziy, Zarif, Akmal Toshkandiy, G‘iyosiddin Umar Marg‘iloniy, Pisandiy, Toib, tabiblardan Hasanxo‘ja Sharqiy Turkistonga borib o‘z ijodiy faoliyatlarini davom ettirganlar. Bu aloqalar ikki o‘lkada o‘ziga xos adabiy muhitning shakllanishiga olib kelgan. Jumladan, Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari orasida Yorkend xoni Xo‘ja Oxunn Arshiy boshchiligidagi Yorkend adabiy muhiti ijodkorlari Shayx Zaliliy, Muhammad Siddiq Rushdiy, Muhammad Sodiq Qashqariy, Nazoriyning ijodi yuqori qadrlangan.

Xulosa. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlaridagi muzeylarda Qo‘qon adabiy muhitida yaratilgan noyob asarlar saqlanadi. Shuningdek, Qo‘qon xonligi davridagi tashqi munosabatlarda o‘zaro hurmat do‘stona hamkorlikni olib borish masalalarida bir qancha yutuqlarga erishilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbek davlatchiligi tarixi. 2 - kitob. – B. 332.
2. Jalolov T. Maktublar // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1991 yil 31 yanvar.
3. Qobilova Z. Amiriy va uning adabiy faoliyati. Fil. fan. nom. diss. ... avtoref. – Toshkent, 2007. – B.10.
4. O‘zbekiston diplomatiyasi tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha) 6-jild. toshkent “O‘zbekiston” 2019.-B.218-219.
5. Qo‘qon xonligining turkiy xalqlar davlatchiligi va madaniy merosini rivojlantirishdagi o‘rni // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qo‘qon: 2022. -B.146-147.
6. O‘zbekiston diplomatiyasi tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha) 6-jild. toshkent “O‘zbekiston” 2019.-B.218.
7. Mahmudov Sh. Qur’oni karim–ellarni bog‘la bturuvchi mustahkam qudratli vosita // Imom al-Buxoriy saboqlari. 2010. №2. 85–87-betlar.; O‘sha muallif. Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalarida hadyalarning tutgan o‘rni // Toshkent islom universiteti ilmiy-tahliliy axboroti. 2011. №1. 4–6-betlar.
8. O‘zbekiston diplomatiyasi tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha) 6-jild. toshkent “O‘zbekiston” 2019.-B.255.
9. Mahmudov Sh. The Role of Sufis in Diplomatic Relations between the Khoqand Khanate and India // Sufizm in India and central Asia. 2017. P. 39–52.